

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKSI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Yang Kvidjaning “Vonmidongdagi odamlar” nomli novellalar to`plamidagi qahramonlar nutqida so`zlashuv uslubining lingvo-kognitiv aspekti.

Bajardi: “Koreys filologiyasi” ta`lim

yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Nadjimxodjaeva Gulnora Sunnatovna _____

Ilmiy rahbar: “Koreys filologiyasi”

kafedrasi o`qituvchisi

Kim E.V _____

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari”
fakulteti dekani f.f.n., Nosirova S. A.

“Koreys filologiyasi” kafedrası mudiri
f.f.n., dots. Kim V.N.

“ ” _____ 2012-yil

“ ” _____ 2012-yil

Mundarija

Kirish.....	3
Asosiy qism	
1-Bob. Koreys tili so'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari.....	7
1.1. So'zlashuv uslubi haqida ma'lumot.....	7
1.2. Koreys tilidagi muloqot uslublari.....	18
I bob bo'yicha xulosalar.....	23
2-Bob. So'zlashuv uslubi ilmiy-madaniy axborot tashuvchi manba sifatida (Yang Kvidjaning "Vonmidongdagi odamlar" novellalar to'plami asosida.).....	24
2.1. So'zlashuv uslubining leksik-frazeologik xususiyatlari.....	24
2.2. So'zlashuv uslubining sintaktik xususiyatlari.....	32
II bob bo'yicha xulosalar.....	43
Xulosa.....	44
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	47

Kirish

“Ta’lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o‘quv yurtlari muhim o‘rin egallamoqda. O‘tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o‘quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta’lim olmoqda. Biz ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko‘nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o‘zgarishlardan atroflicha xabardor bo‘lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o‘rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz”¹.

Prezidentimiz Islom Karimov millat o‘z qaddini tik tutishida va O‘zbekistonning hech kimdan kam bo‘lmaydigan buyuk davlat bo‘lishida xalq maorifi sistemasini tubdan o‘zgartirish, o‘quvchilarga chinakam g‘amxo‘rlikni amalga oshirish, iste’dodli yoshlarga sharoit yaratib berish kabi yoshlar tarbiyasiga doir milliy siyosatni ishlab chiqdilar va uni bevosita amalda qo‘llab kelmoqdalar².

Koreys tili murakkab uslubiy tizimga ega til hisoblanadi. So‘zlardan va grammatik birliklardan to‘g‘ri va mohirona foydalanish, hurmat shakllarini o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llay olish koreys tili so‘zlashuv uslubini o‘rganishda yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklardan biri hisoblanadi. Bunda uslubiy tizimni mukammal o‘rganish va uni hayotga tatbiq etish katta ahamiyat kasb etadi. So‘zlashuv uslubidagi uslubiy hatoliklarni bartaraf etish va uni mohirona tatbiq eta olish uchun uzoq yillar davomida koreys millati xalqlari bilan suhbatda bo‘lish natijasida yig‘ilgan tajribalarning o‘rni katta hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda

¹Karimov I.A. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqidan. – Toshkent, O‘zbekiston, 2012. – 3 b.

² Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. – Toshkent, O‘zbekiston, 2011. - 64 b.

nazariy bilimlarga ega bo'lish ham muhim ahamiyat kasb etishini e'tiroz qila olmaymiz.

Mavzuning dolzarbligi koreys tilining nafaqat leksik balki grammatik xususiyatlarini o'zida jam etgan so'zlashuv uslubining lingvo – madaniy masalalarini chuqur o'rganish va uni hayotga tatbiq eta olishda ko'rinadi. Suhbat jarayonida tinglovchining jamiyatdagi o'rni va yoshi, lavozimiga qarab munosabat bildirish koreys millatining e'tiborga loyiq o'ziga xos hususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bunda ushbu muloqot uslublari haqida nazariy ma'lumotga ega bo'lish, bunday vaziyatlardan oson chiqa olish imkonini yaratib beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Ushbu mavzu rus koreyashunos olimlari A.A. Xolodovich, Yu. N. Mazura, G.I. Ramstedtning koreys tili haqidagi ishlarida bayon etilgan³. Bundan tashqari Koreyada koreys tilshunos olimlari tomonidan ham bir necha ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilib kelinmoqda. Uslubiyatga oid ilmiy – tadqiqot ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan o'rganila boshlagan. Bunda 1960 – yillarida paydo bo'layotgan yangi Grammatik qutilmalar haqida tadqiqotlar avj olgan bo'lsa, 1970 -1980 yillarga kelib so'zlashuv uslubi va dialogik nutqga doir tadqiqotlar o'tkazila boshlangan. XX asrga kelib esa bu boradagi tadqiqotlarni fransiyalik olim S. Bally tizimli tadqiqotlar olib borish bilan davom ettirgan. Hozirgi kunga kelib Koreyada koreys tilshunos olimlari tomonidan uslubiyatshunoslikni o'rganishga doir qiziqishlar ko'payib, bir necha tadqiqotlar olib borilib kelinmoqda⁴.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, mazkur ish keyingi tadqiqotlar uchun asos yoki qo'shimcha material bo'lishi mumkin, shuningdek u tilshunos

³ Мазур Ю.Н. Грамматика корейского языка. - М., Дом Муравей-Гайд, 2001; Холодович А.А. Очерк грамматики корейского языка. - М., Литература на иностранных языках, 1964; Рамстедт Г.И. Грамматика корейского языка. - М., Восточная литература, 1951. – 98 с.

⁴국어교육학사전. – 서울, 대교출판, 2004. – 283 쪽.

talabalar, ayniqsa, sharq madaniyati bo'yicha mutaxassislar va koreys tilshunosligi bilan qiziquvchi barcha insonlar uchun qo'shimcha qo'llanma vazifasini o'taydi.

Tadqiqot obyekti romannavist Yang Kvijaning "Vonmidonglik odamlar" nomli romanlar to'plami hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti koreys tili so'zlashuv uslubining lingvo-madaniy jihatdan o'rganilishi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi koreys tilidagi so'zlashuv uslubining lingvo – madaniy masalalarini chuqur o'rganishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi Yang Kvijaning "Vongmidongdagi odamlar" nomli novellalar to'plami asosida koreys tilidagi so'zlashuv uslubining lingvo-madaniy masalalari o'rganishga qaratilgandir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** belgilab oldik:

- Koreys romannavisti Yang Kvijaning "Vonmidongdagi odamlar" nomli romanlar to'plamini o'rganib chiqish;
- Ushbu to'plamda berilgan so'zlashuv uslubiga oid qismlarini ya'ni dialoglarni ajratib olib o'rganish va tahlil qilish;
- Koreys tili so'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Koreys tilidagi muloqot uslublarini o'rganish;
- Koreys tili so'zlashuv uslubining leksik – frazeologik o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganib chiqish;
- Koreys tili so'zlashuv uslubining sintaktik o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqish;

Bitiruv malakaviy ishining asosiy manbalari:

1. Bozorboy va Dilbar O'rinboyevlar. Xozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi.
2. 이익섭, 한국의언어.
3. 박영순, 국어문법교육론.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuni tadqiq etishda paydo bo'ladigan muammoviy masalalar, o'rganilish darajasi, mavzuning amaliyligi, obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari to'g'risida qisqacha ma'lumot berib o'tishdan tashkil topgan.

Bu tadqiqot ishining birinchi bobida koreys tili so'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari haqida va koreys tilining muloqot uslublari haqida ma'lumot berilgan.

Ikkinchi bobda esa so'zlashuv uslubini leksik – frazeologik va sintaktik jihatdan tahlil qilish va o'rganish maqsad qilingan.

Xulosa qismida tadqiqot olib borilgan mavzu bo'yicha kelib chiqqan xulosalar, natijalar va yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar, ularni hal etish chora-tadbirlari to'g'risida qisqacha bayon etish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismida esa foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari keltirib o'tilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda tilshunoslikning tavsifiy, tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy va albatta tarjima metodlaridan foydalandik.

Asosiy qism

1- bob. Koreys tili so'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari

1.1. So'zlashuv uslubi haqida ma'lumot

So'zlashuv uslubi oilada, ko'cha-ko'yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo'llaniladigan nutq uslubi hisoblanadi. So'zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy – norasmiy, muomalari doirasida til birliklarining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. Uni ma'lum ma'noda tildagi boshqa uslublarga qarama – qarshi qo'llash mumkin. So'zlashuv uslubi qo'llanishining ommaviyligi bilan xarakterlanadi, chunki undan barcha yoshdagi va turli kasbdagi kishilar foydalanadi. So'zlashuv uslubi formalari badiiy adabiyotda ham o'zining munosib o'rnini egallagan. Tilning boshqa uslublari so'zlashuv uslubi ostida shakllanadi. Shuning uchun so'zlashuv uslubi birlamchi, boshqa uslublar ikkilamchi hodisa hisoblanadi. So'zlashuv uslubini tadqiq etgan ba'zi olimlarning fikricha, so'zlashuv uslubi nutqiy hodisa bo'lib, u o'z xususiyatiga ko'ra nutqning har qanday boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi va bu alohida turdagi nitq hisoblanadi deb ta'kidlaydilar. Olima O.B. Sirotinina esa so'zlashuv uslubi haqida gapirganda bu hodisani “nutq tipi” termini bilan ataydi. Ammo ayrim ishlarida to'g'ri ta'kidlaganidek, so'zlashuv nutqini alohida nutqiy tip ekanligi ochib berilgan emas⁵.

Koreys tili uslubiyatida yaqin-yaqinlargacha so'zlashuv nutqiga e'tibor kam berilib kelar edi. So'zlashuv nutqini sodda nutq tushunchasi bilan aralashtirilib, yozma nutqning so'zlashuv nutqidan afzalligi haqida juda ko'plab bahslar yuritib kelingan. Lekin hozirga kelib, koreys tili stilistikasida so'zlashuv nutqi va yozma nutqning ham o'z o'ri borligi haqida ta'kidlanib kelinmoqda.

So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg'un bo'lishida ko'rinadi. Ayni paytda bu holat so'zlashuv uslubidagi me'yoriy holatlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Chunki tildan

⁵Sirotinina O.B. So'zlashuv uslubi // Ijtimoiy lingvistik masalalar. – L., 1969, - 376b.

foydalanuvchining shaxsi, buning ustiga, nutqiy vaziyat yagona bir me'yorni tayin etishga imkon bermaydi. So'zlashuv uslubi asosida ham nutqning boshqa funksional formalariga tegishli xususiyatlar yotadi. Bir xil fonetik morfologik tarkib, so'zlarning umumiy ko'lami, asosan, bir xildagi grammatik kategoriyalarga egaligi kabi bir necha xususiyatlarni o'zida jam etadi. Bundan tashqari so'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib, bu o'ziga xoslik so'zlashuv nutqi kechayotgan sharoit, uning mazmuni, vazifasi va tuzilishi bilan belgilanadi. Bunday belgilar, asosan to'rtta:

- nutq vaziyati;
- nutq mazmuni;
- nutq vazifasi;
- nutq tuzilishi⁶;

Nutqiy vaziyatda suhbatdoshlar nutq davom etayotgan shart-sharoit, vaziyat, holatni hisobga oladi. So'zlashuv nutqida so'zlovchi shaxslar tajribaning umumiyliigi, sharoitlar yig'indisi, so'zlash paytidagi vaziyat fikrni ixcham ifodalashga imkon beradi. Vaziyat aytilmagan firkning – bo'lakning kompensatsiyasi sanaladi. Bunda gapirayotgan va tinglayotgan kishilar gap nimada ekanligini, kim va nima haqida so'z borayotganligini bilishadi. Shuning uchun bunda fikr ifodasi uchun juda zarur bo'lmagan hamma narsani aytmasdan “tushirib qoldirish” kuchli bo'ladi. Vaziyat nutq tuzilishiga bevosita ta'sir qiladi va bu ta'sir ko'proq nutqiy parchaning birinchi elementida ko'rinadi.

Masalan, bemorning ahvoli so'ralganda:

- 이제다나왔어요?
- 응, 시를읽으면서누워있었더니금방나왔지⁷.
- Endi ancha tuzikmisiz?

⁶ Bozorboy va Dilbar O'rinboyevlar. Xozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. – Toshkent, Fan, 1991. - 29 b.

⁷ 양귀자. «원미동사람들»연작소설집. – 서울, 살림출판사, 2004. - 108 쪽.

- ha, she'r mutoala qilib, yotib dam oldan edim tezda tuzalдим.

Nutq vaziyati ta'sirida ba'zan nutqiy parchaning ikkinchi qismi qisqa tarzda bayon etiladi.

Masalan.

- 서울? 뭣하러?⁸
- Seulga? Qay maqsadda?

So'zlashuv nutqi uslubiy qurilishini belgilashda xizmat qiluvchi vaziyat bilan bog'liq bo'lgan quyidagi omillarni hisobga olish lozim bo'ladi:

1. So'zlashuv uslubi kishilar o'rtasidagi dialogik nutqda o'z ifodasini topadi. Dialog ikki va undan ortiq suhbatdoshlarning umumiy mavzu yuzasidan olib borayotgan suhbatini zanjiridan iboratdir. Bunda ko'p holda suhbatdosh tomonidan boshlangan nutqni boshqasi davom ettiradi. Nutqni davom ettirish so'roqqa javob berish, aytilgan fikrga qo'shimcha qilish, fikrga e'tiroz bildirish va boshqa tarzda amalga oshiriladi. Birinchi suhbatdosh nutqini ikkinchi suhbatdosh davom ettirib, ikkalasi birgalikda bir umumiy mavzu haqida tugallanmagan fikrni ifodalaydi. Shuning uchun birinchi va ikkinchi suhbatdosh nutqini nutqiy parcha deb ataymiz. Nutqiy parchaning eng xarakterli va asosiy belgisi shundan iboratki, ikkinchi suhbatdosh fikrida birinchi suhbatdosh fikrining ba'zi elementlari takrorlanadi, yo almashtiriladi yoki tushirib qoldiriladi.

Masalan.

- 오늘 끝나기는 어렵겠죠?
- 그럴거야⁹.
- Bugun tugatish qiyin shekilli?
- Shunaqaga o'xshaydi.

⁸ 양귀자. «원미동사람들»연작소설집. - 서울, 살림출판사, 2004. - 81 쪽.

⁹ 양귀자. «원미동사람들»연작소설집. - 서울, 살림출판사, 2004. - 144 쪽.

2. So'zlashuv uslubi – mahsus tayyorgarlik ko'rilmay shakllangan uslubiy sistema. So'zlashuv jarayonida suhbatdoshlar bir-birining savoliga javob berganda tayyorgarlik ko'rmayvaziyatga qarab fikr yuritadi. Bunda suhbatdoshlar aktivligi va operativligi yaqqol ko'zga tashlanadi¹⁰.

3. So'zlashuv uslubi – subyektiv xarakterdagi uslubdir. Kishi obyektiv borliqni turlicha baholaydi. Natijada uning subyektiv fikrlari shakllanadi. Kishi shoshilinch tarzda, tezlik bilan biror voqea-hodisa haqida habar bermoqchi bo'lsa, o'z nutqini subyektiv qobiqqa o'raydi. Natijada subyektiv fikrni ifodalovchi uslub shakllanadi.

4. Norasmiy aloqa sharoitining tabiiyligi. Kishilar bir-biri bilan oila davrasida, o'rtoqlik – do'stona suhbatda, o'z mehnat kollektivida o'zini erkin tutadi, erkin fikr yuritadi. Ana shu tabiiylik sharoitida suhbatdoshlar yumorga ko'proq e'tibor berishga harakat qiladi. Bu narsa so'zlashuv uslubining shakllanishiga ta'sir qiladi.

5. Bevosita kontaktlik va bir vaqtdagi aloqaning ustunligi. Bevosita aloqa jarayoni to'liq ikki tomonlama munosabat asosida yuz beradi. Suhbatdoshlarning o'zaro aloqasini norasmiy holatda kechishi natijasida og'zaki nutq shakllaridanva ekstralingvistik omillar (holat konteksti, imo-ishora, yuz-qo'l harakati)dan foydalanish imkoniyatini tug'diradi, natijada so'zlashuv uslubi shakllanadi.

6. So'zlashuv uslubining jonli ko'rinishi – og'zaki shaklidir. Og'zaki uslub so'zlashuv nutqi kommunikativ funksiyasida yetakchi omildir. Og'zaki nutq o'zaro bevosita aloqa jarayonida hukmron shakl hisoblanadi. Og'zaki nutq o'zining quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi: a) og'zaki shakli ko'plab kishilarning nutqiy faoliyatini moslashtiradi va bu faoliyatni uyushtiradi; b) og'zaki nutq amaliy (operativ) nutq; v) og'zaki nutq nutqiy ifodalikka boy bo'lib, u yozma nutqda har doim o'z ifodasini topavermaydi¹¹.

¹⁰ Bozorboy va Dilbar O'rinboyevlar. Xozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. – Toshkent, Fan, 1991. – 35 b.

¹¹ 국어교육학사전. – 서울, 대교출판, 2004. - 280 쪽.

7. Birgina subyekt va birgina tinglovchining aniqligi. Inson jamiyat bilan bo'lgan munosabatida turli murojaatlardan foydalanadi. Subyektning nutqi muayyan tinglovchiga qaratilgani uchun u fikrning tezlik bilan anglab olinishiga intiladi. Bu esa, so'zlovchi shaxsning hayotiy qiziqishi va maqsadidan kelib chiqadi. So'zlovchi o'z fikrini eng qisqa va tushunarli formada tinglovchiga yetkazishga harakat qiladi. Ba'zan subyekt o'z fikrini bir necha shaxs nomidan bir kishiga yoki bir necha kishiga qaratilgan fikrini bayon etishi mumkin.

Masalan.

- 경국이할아버지, 오늘저회집에서반상회있어요. 꼭참석하셔야해요. 아셨죠?¹²
- Kyongukning buvasi, bugun bizni uyda mahalla yig'ilishi majlisi bo'ladi.

Albatta qatnashishindiz lozim. Chundingiza?

8. So'zlashuv uslubida aloqa komponenti sifatida ekstralingvistik omillar aktiv o'rin tutadi. So'zlashuv nutqida, ayniqsa, dialogda imo va ishoralar qo'llaniladi. Bu ekstralingvistik omillarni yozma nutqda real ravishda aks ettirib bo'lmaydi. Imo va ishora nolingvistik hodisa bo'lib, nutqdan tashqarida ham, nutq jarayonida ham unga yordamchi vosita sifatida, asosan og'zaki nutq jarayonida namoyon bo'ladi. So'zlashuv uslubi o'z aksini topgan matnlar ekstralingvistik omillar so'zlar va remarkalar vositasida ham aks ettiriladi. Imo va ishoralar ko'p vaqt nutq mazmuniga uyg'un holda ishlatilib nutqning ta'sir kuchini oshiradi.

Masalan.

“ - 좋수다. 형씨, 한잔하십시다.” 임씨가호기를부리며소리나게잔을부딪쳤다¹³.

“– Qani, Janob Hyong, ko'tardik unda. ” Janob Lim qiziqqonlik bilan piyolani ko'tarib, ovoz chiqadigan darajada ularni urushtirdi.

Nutq mazmuni. So'zlashuv nutqi aniqlik xarakteriga ega, chunki kundalik aloqada aniq narsa-hodisa va predmetlar haqida fikr yuritiladi. So'zlashuv

¹²양귀자. «원미동사람들»연작소설집. – 서울, 살림출판사, 2004. - 79 쪽.

¹³ 양귀자. «원미동사람들»연작소설집. – 서울, 살림출판사, 2004. - 166 쪽.

nutqining mazmuni aniq predmetlar to'g'risidagi dolzarb xabarlar yig'indisidan iborat. Bu xabarlar dalillarga asoslangan, hissiyotlarga qorishgan, shaxsiy bahoga asoslangan bo'lishi mumkin.

So'zlashuv nutqida aniqlik (konkretlik) o'z aksini topganda abstraksiya kuchli darajada bo'lmaydi. Bu hol, asosan, fikrni bayon etish jarayonida yuz beradi. So'zlashuv nutqi uslubi tuzilishini belgilovchi mazmun uchun quyidagi holatlar xarakterlidir:

1. To'la mazmuni ifodalamaslik darajasi. Har bir nutqiy matnning mazmunga boylik darajasi yangi axborotni yetkazish soni va sifati bilan belgilanadi. Kuzatilgan yakka voqea-hodisalar va predmetlar haqida xabar yetkazish axborotning sodda ko'rinishidir.

Bir-biriga o'xshash shunday ma'lumotlarni to'plash natijasida axborotning hajmi kengayadi.

2. Yakkalik, individuallikni ifodalashga intilish, abstraktlikdan konkretlikning ustunligi. So'zlashuv nutqi uslubida ko'pincha yakka predmet, voqea-hodisalar haqida fikr bayon etish bilan konkretlikka intiladi.

Masalan.

- 나보고이동네를떠나래요.

넓고넓은서울바닥에서야물장사를하든술장사를하든상관치않을테니빨리가게를내놓고 떠나랬어요¹⁴.

- Meni ko'rib bu qishloqdan ketgin dedi. Kengdan keng Seulda suv sotasanni spirtli ichimlik sotasanni aralashmayman, do'konningni tashlayu tezda ket dedi.

3. Hissiyotga boyliligi. Kundalik aloqa-aralashuv jarayonida kishilar bir-biri bilan munosabatda o'z hissiyotini bildiradi. Hissiyotlar yuz ko'rinishini o'zgartirish, qichqirish, baqirish, kulish, yig'lash, har xil imo-ishoralar orqali

¹⁴양귀자. «원미동사람들»연작소설집.- 서울, 살림출판사, 2004. - 225 쪽.

ifodalanishi mumkin. Emotsionallik fonetik, grammatik va leksik vositalar bilan ifodalanadi. Emotsiya hislarning har xil bo'lishiga (shodlik, erkalash, g'azab, afsus, qo'rqinch kabi) va ularning qay darajada bo'lishiga qarab, shunga mos ravishda intonatsiya ham turlicha bo'ladi. Bu narsa so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, ular so'zlashuv uslubi tuzilishini belgilaydi.

4. So'zlashuv nutqida kishining subyektiv va affektiv fikrlari bayon etiladi. Ma'lumki, so'zlashuv nutqi o'z mohiyati jihatidan obyektiv xarakterga ega emasdir. Agar kishining vaqti bo'lsa, u o'z fikrini obyektiv tarzda o'ylab, biror tartibga solib ifodalaydi. Aksincha, u, shoshilinch tarzda, tezlik bilan biror voqea-hodisa haqida xabar bermoqchi bo'lsa, u o'z nutqini subyektiv qobiqqa o'raydi.

5. So'zlashuv uslubi modal-imperativ formalarning boyligi bilan xarakterlanadi. Kundalik aloqada bevosita munosabat natijasida suhbatdosh fikriga ta'sir qilish uchun imperativ ekspressiyadan foydalaniladi.

Masalan.

- 아이구, 아줌마도손해는무슨손해요?

김포에서받은것도이백원어치곱절은됐을텐데, 안그래요?¹⁵

- Voy hudoyimey, xola sizam ajoyibsiz qanaqa zarar? Qurtilgan dengiz mahsulotlaridan 200 von ikki barobar foyda oldizku, shunaqamasmi?

6. So'zlashuv nutqida informativlikka nisbatan kommunikativlik kuchlidir.

7. Nutqda obyektiv voqeilikni aks ettirish jarayonida assotsiativ fikrlashning ustunligi. Nutqqa obrazlilik, hissiy jilo berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralar ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Demak, so'zlashuv nutqining dolzarb xarakterdagi mazmunini shakllantirish uchun ushbu uslubga xos fonetik, leksik, grammatik normalardan o'rinli foydalanish lozim bo'ladi.

¹⁵양귀자. «원미동사람들»연작소설집. - 서울, 살림출판사, 2004. - 242 쪽.

Nutq vazifasi. Til uslublarning harakatda olinishi, konkret reallashuvi nutq uslubi sanaladi. So'zlovchi nutqning xarakteri ularning qanday muhitda, qanday maqsadda bajarilayotganligi bilan xarakterlanadi. Qanday soha, sharoit, maqsad va vazifalar bilan bog'liq ravishda so'zlovchi tilning konkret vositalarini tanlab ishlatadi. Bu vositalar aloqaning ma'lum bir sohasida doimiy ravishda ishlatilishi, boshqacha qilib aytganda, tilning bu vositalarining stilistik differentsiasiya qilinishi natijasida nutqiy funksiya shakllanadi. Tilning inson faoliyati u yoki bu sohasi bilan bog'liq funksiyalariga ko'ra ajratiladigan uslublarning funksional uslublari sanaladi.

Demak, funksiya – til birliklari va ular asosida tuzilgan nutqiy birliklarning nutqda bajaradigan vazifasidir. Nutqiy funksiya quyidagi vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi¹⁶:

1. Konkretlikni ifodalash funksiyasi. Bunday funksiya fonetikada konkretlashtiruvchi intonatsiyada va tovushlar obrazlilikida, leksiyada so'zlar xususiy ma'nosining faollashuvi natijasidagi, polisemiya, sinonimlarga e'tiborning kuchayishida, leksik – frazeologik metaforalarning faollashuvida ko'rinadi. Morfologiyada fe'lning shaxs shakllari, so'zlar noinalizatsiyasi, so'z turkumlarining adverbializatsiyasi faollashadi.

2. Hissiylik va hissiy bahoni ifodalash vazifasi. Bu vazifani ifodalashda hissiylik va hissiy bahoni ifodalovchi leksika va frazeologiya, undov va yuklamali sintaktik bo'laklar faollashadi.

3. Subyektiv ekspressivlikni ifodalash vazifasi. Bunday vazifani ifodalashda intonatsiyaning graditsion ekspressiyasi, undovlardan yasalgan fe'llar, so'z tartibi, takrorlar, antonimik birikmalar faol qo'llaniladi.

4. Noaniq ifodalash vazifasi. Suhbatdoshlar so'zlashuv jarayonida ko'p narsani o'ylab topishga harakat qiladi. Chunki birinchidan, suhbat mavzusi unga yaxshi

¹⁶ 최용기. 국어학연감. – 서울, 국립국어원, 2004. - 195 쪽.

tanish va yaqin, ikkinchidan, aytilmagan leksik va sintaktik bo'laklarni so'zlovchining nutqiy ohangidan anglashga harakat qiladi, uchinchidan, tushunmagan narsalarini qayta so'roq va yuz – qo'l harakatlari bilan anglab olishga urinadi. Shu jarayonda noaniq ifodalash vazifasi namoyon bo'ladi. Noaniqlik intonatsiya, yuklamalar, kirish bo'laklar, undovli jumlar, mahsus sintaktik bo'laklar bilan ifodalanadi.

5. Qarama – qarshi fikrni ifodalash vazifasi. Bunday vazifa antonimlar, haqorat so'zlarning faollashuvi bilan ifodalanadi.

Masalan.

- 설마일을할작정은아니겠지?¹⁷

- Ishlarni qilishni rejalashtirgan bo'magin hali?

6. Modal – imperativ vazifa. Modal funksiya tilda leksik, morfologik, sintaktik, intonatsion vositalar bilan ifodalanishi bilan birga, boshni sarak-sarak qilish yoki vertical harakat bilan qimirlatish, qo'ning turli harakatlari bilan ifodalanadi. Bu vazifa inkor – tasdiq, rozi – norozilik, ijozat – taqiq, istash – istamaslik, kerak – nokeraklik, imkoniyat – imkoniyatsizlikni ifodalash orqali ro'yobga chiqadi.

Nutq tuzilishi. So'zlashuv nutqini uslub nuqtai nazaridan tekshirish jarayonida uni boshqa nutqiy shakllar bilan qiyoslash asosida uning asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Ma'lumki, har qanday funksiyaning ro'yobga chiqishida tuzilish, tuzilishning ro'yobga chiqishida funksiyaning vazifasi beqiyosdir. Har qanday tuzilishda bir necha funksiya bo'lgani kabi, bir funksiya bir necha tuzilishlat orqali shakllanishi mumkin. Har bir tuzilishning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, ular o'ziga xos qonuniyat asosida shakllanadi. Shunday ekan so'zlashuv nutqi uslubi tuzilishi uchun harakterli belgilar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

¹⁷양귀자. «원미동사람들» 연작소설집. – 서울, 살림출판사, 2004. - 269 쪽.

1. Shakl jihatidan umumtilga tegishli elementlarning faolligi. Leksik va frazeologik birliklarning, fe'l, olmosh va sifatdoshlarning ikkilamchi ma'noda ishlatilishi taraqqiy qilgan.

Masalan.

- 결국그남자는사라져버리고말았군요¹⁸.
- Oxir oqibat u odam yo'qolib ketibdida.

2. Stilistik belgi bo'lgan tuzilishlar faolligi. Bunday tuzilishlarni leksikada, frazeologiyada, morfologiyada va sintaksisda ham uchratish mumkin. Ular so'zlashuv va kitobiy uslublarning o'ziga xos xususiyatlarini ro'yobga chiqarishda yordam beradi.

Masalan.

- 어머니, 어쩐지목욕탕물이시원찮게나오더라구요. 이를어째¹⁹.
- Voy o'lay, nima qilamiza hammomdan suv toshib chiqyaptikanu. Endi nima qilamiza buni.

3. Til sinonimlaridan unumli foydalanish. Til sinonimlarini uning barcha tarmoqlarida ko'rishimiz mumkin.

Masalan.

- 빨리가, 이자식아! 경찰서러가잔말야!
- 왜이러세요..... . 내가무슨잘못이..... 있다고요.....²⁰.
- Tezroq yur, yaramas bola! Mahkamaga yur deyapman!
- Nega unday qilyapsiz.. . Men nima qildim axir....

¹⁸양귀자. «원미동사람들» 연작소설집. - 서울, 살림출판사, 2004. - 134 쪽.

¹⁹ 양귀자. «원미동사람들» 연작소설집. - 서울, 살림출판사, 2004. - 141 쪽.

²⁰ 양귀자. «원미동사람들» 연작소설집. - 서울, 살림출판사, 2004. - 102 쪽.

4. Ko'p vazifali tuzilishlarning faolligi. Bu narsa ayrim tuzilishlarning semantik variantlari asosida paydo bo'ladi. Leksikada biror so'zning ko'plab vazifaviy tuzilishlar tarkibida kelishi, gaplarning semantik – sintaktik mos kelishliklarini ko'ramiz.

5. Vazifaviy sinkretik tuzilishlar faolligi. Obyektiv borliq haqida tasdiq – inkor hodisasi xabar berishning eng o'ziga xos xususiyatidir. Mantiqiy jihatdan inkorning o'zi ham tasdiq mazmuni bilan birikadi.

Masalan.

- 다른걸몰라도쌀안먹고연탄안때고살수없으니까경호네를잇고살수는없겠지²¹.

- Boshqasini bilmadimu guruch yemay, olov yoqmay yashab bo'lmaydigandek, Kyonghoneni unitib ham yashab bo'lmas.

6. To'liqsiz tuzilishlardan foydalanishning faollashuvi. So'zlovchi ma'lum narsa yoki voqea – hodisa haqida fikr yuritar ekan, ko'pincha gap bo'laklarini to'liq ifodalaydi. Lekin ba'zi hollarda faqat birgina bo'lakdan iborat to'liqsiz gaplar ham qo'llaniladi. Bunday to'liqsiz tuzilishlar o'zidan oldingi gapda ifodalangan fikrni izohlashga, aniqlashga, to'ldirishga, alohida ta'kidlashga xizmat qiladi. Bu ko'rinishdagi to'liqsiz tuzilish ega, kesim, to'ldiruvchi va holdan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan.

- 영등포야, 반은온것같은데... . 춥지?

- 네, 조금...²².

- Yong Dingpxo, yarim yo'lli bosib o'tgandaymiz.... Sovuq qotding – a?

- Ha, ozgina... .

²¹양귀자. «원미동사람들»연작소설집.-서울, 살림출판사, 2004. - 239 쪽.

²²양귀자. «원미동사람들»연작소설집.-서울, 살림출판사, 2004. - 22 쪽.

7. Rasmiy sinkretizm. Fikr bildirish jarayonida har xil qisqarish va kontaminatsiya hodisasi ro'y beradi. Hatto ba'zi gap va frazeologizmlar ma'nosini bir so'z orqali ifodalash mumkin bo'lib qoladi.

8. Turli tarmoqlarning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri. Buning natijasida bir tuzilish yordamida boshqa – boshqa ma'nolarni ifodalaydilar.

Demak, so'zlashuv uslubi vaziyat, mazmun, vazifa va tuzilish talablari asosida o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. So'zlashuv uslubining tuzilishiga ta'sir qiluvchi belgilar uning o'ziga xosligini oydinlashtirishga imkon beradi. Shunday ekan, so'zlashuv uslubi ham o'z lingvistik me'yoriga egadir.

1.2. Koreys tilidagi muloqot uslublari

Suhbat jarayonida tinglovchining jamiyatdagi o'rni va yoshi, lavozimiga qarab munosabat bildirish koreys millatining e'tiborga loyiq o'ziga xos hususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bunda muloqot uslublari haqida nazariy ma'lumotga ega bo'lish, bunday vaziyatlardan oson chiqib olish imkonini yaratib beradi. Ikki shaxs muloqotga kirishayotganda qay bir uslubdan foydalanish bevosita so'zlovchi tinglovchining, eng avval, yoshi, oilaviy ahvoli, egallab turgan lavozimi, jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumotga ega bo'lganidan keyingina tanlanib ishlatiladi.²³ Shuning uchun ham koreys millati xalqlari biror shaxs bilan tanishib suhbatga kirishayotganlarida, eng avval, u shaxsga shaxsiy savollar berishdan boshlaydilar. Shu orqali ular u shaxsning vaziyati va holati haqida bilib olib, shundan so'nggina muloqot uslubini tanlaydilar va erkin muloqotga kirishadilar.

Koreys tilida muloqot uslublarining 6 xil ko'rinishi mavjud²⁴. Ular quyidagilar:

- Rasmiy – hurmat muloqot uslubi;

²³ 최현섭. 국어교육개론. -서울, 외교출판사, 2005. - 266 쪽.

²⁴ К.Б. Куротченко. Корейский язык (учебно-пособие). -М., 2005. -46с.

- Rasmiy – behurmat muloqot uslubi;
- Do'stona muloqot uslubi;
- Oddiy muloqot uslubi;
- Betakalluf muloqot uslubi;
- Haqoratomuz muloqot uslubi;

Rasmiy – hurmat muloqot uslubi. Bu muloqot uslubi odatda, ish joylarida, davlat idoralari, davlatga qarashli rasmiy idoralarda, harbiy xizmatda keng qamrovda ishlatiladigan uslub hisoblanadi. Ya'ni bu muloqot uslubi asosan, suhbatdoshimiz yuqori lavozim egasi yoki bizdan yuqoriroq bo'lgan lavozimniegallab turganda, yoki yoshi jihatdan bizdan ancha katta bo'lganda, shu bilan bir qatorda suhbat rasmiy davrada o'tkazilayotganda ko'proq qo'llaniladi. Bu muloqot uslubini yasalayotganda asosan, kesimning o'zagiga - **버니다 / 습니다** kabi rasmiy uslubni beruvchi qo'shimcha qo'shib yasaladi.

Masalan:

- 어디갑니까?
- 집에갑니다²⁵.
- Qayerga ketayapsiz?
- Uyga ketayapman.

Rasmiy – hurmat muloqot uslubini yuqoridagi misolda berilgani kabi ifoda etish bilan birga, uni yana so'zlovchini tinglovchiga bo'lgan hurmatini yanada yaqqol ko'rsatib ifoda etish usuli bilan ham berish mumkin. Bu usul kesimning o'zagiga – (으)시 qo'shimchasini qo'shib amalga oshiriladi.²⁶

Masalan:

- 어떻게지내십니까?

²⁵К.Б. Куротченко. Корейскийязык(учебноепособие).-М., 2005. –48с.

²⁶한길. 현대우리말의마침씨끝연구. –서울,역락, 2004. - 259 쪽.

- 당연히, 잘 지내고 있습니다²⁷.
- Yaxshi yuripsizmi?
- Albatta, yaxshi yuripman.

Faqat bunda hurmat bildirayotgan so'zlovchining hurmatini joyiga qo'yib, o'zini yuqori ko'rsatib ta'kidlamaslik uchun tinglovchi javob qaytarayotganida kesim o'zagiga - (으)시 qo'shimchasini qo'shmay, o'z nutqini oddiyroq ko'rinishda ifodalashi lozim.

Bu muloqot uslubining yana bir o'ziga hos hususiyati uning ko'pincha begonalar orasidagi ilk suhbatlarda qo'llanilishi hisoblanadi. O'zaro yaqinaloqadagi insonlar orasida qo'llanganda esa ko'pincha kesatiq, hazilomuz suhbat tariqasida namoyon bo'ladi.

Masalan:

- 아주일찍오셨습니다.
- 미안, 많이기다렸어?²⁸
- Juda barvaqt kelib qo'yipsiz. (kesatiq)
- Kechir, anchakutibqoldingmi?

Rasmiy-behurmatmuloqotuslub. Bu muloqot uslubini yana "ayollar" uslubini deb ham atashadi. Buning asosiy sababi bu uslubning noziklik va mayinlik kabi xususiyatlari egaligi hisoblanadi. Ammo bu uni faqat ayollar orasida keng qo'llaniladigan uslub deb baho berilishiga sabab bo'la olmaydi. Bu uslubdan asosan oila a'zolari, yaqin insonlar orasida va shaxsiy suhbatlar jarayonida keng foydalaniladi. Bu uslub kesim o'zagiga -아요 / -어요 /-여요 qo'shimchalarini

²⁷ 고려대. 재미있는 한국어 5. -서울, 교보문고, 2010. - 64 쪽.

²⁸ 고려대. 재미있는 한국어 5. -서울, 교보문고, 2010. - 72 쪽.

qo'shish bilan yasaladi.²⁹ Koreys tilida unli harflar yorug' va qorong'u unlilar kabi turlarga ajratilgan bo'lib, yorug' unlilar bilan tugagan kesim o'zagiga – 아요 qo'shimchasi, qorong'u unlilar bilan tugagan kesim o'zagiga – 어요 vanihoyat 하다 so'zi bilan yakunlanadigan kesimlarning o'zagiga – 여요 qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan:

- 일기예보에서비가올거라고했으니까우산을가져가요.
- 네, 알겠어요³⁰.
- Ob-havo yangiliklarida yomg'ir yog'adi deyishgan soyabon olib keting.
- Ha, albatta.

Do'stona uslub. Bu uslub o'z nomi bilan ham ma'lumki, do'stlar, sinfdoshlar, juda yaqin munosabatdagi insonlar orasida keng qo'llaniladi. Shu bilan birga bu uslubni kattalar o'zlaridan kichiklarga nisbatan ham keng miqyosda qo'llab keladilar. Bu uslubni –아/ -어/ -여 va -야 qo'shimchalari asosida yasalib, bunda gapning so'roq, darak yoki taklif va hakoza ekanligi so'zlovchining ohangi orqali namoyon bo'la oladigina, holos.

Masalan:

- 놀지만말고책이나좀읽어!³¹
- Faqat o'yin – kulgu bilan shug'ullanmasdan, ozgina kitob ham o'qigin.
- 이게바로서울이야?
- Aynan shu yer Seulmi?

²⁹ 최현섭. 국어교육개론.-서울, 외교출판사, 2005. - 270 쪽.

³⁰ 고려대. 재미있는 한국어 5. -서울, 교보문고, 2010. - 98 쪽.

³¹ К.Б. Куротченко. Корейский язык(учебноепособие).-М., 2005.-56с.

- 순회얼굴이너무예뻐³².
- Sunhvening chehrasiga juda ham go'zal.

Oddiy muloqot uslubi. Bu uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning gazeta, jurnal, maqolalar, kitoblar, e'lonlar kabilarda keng qo'llanilishi hisoblanadi. Bu muloqot uslubining asosiy xususiyatlaridan biri uni ommaga nisbatan keng qo'llanilishi hisoblanib, bunda bir insonning butun ommaga murojaati namoyon bo'lganida qo'llaniladi. Bu muloqot uslubi behurmat oddiy muloqot uslubi bo'lsada, uni ommaga nisbatan qo'llash ommani behurmat qilish uchun emas, ommaning barchasiga birday munosabatni bildirish uchun qo'llaniladi. Bu uslub kesim o'zagiga –ㄴ/는다 qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.³³

Masalan:

국민을위해일하는것은큰행복이다.

Xalq uchun mehnat qilish katta baxt.

나무들이비때문에축축해진다.

Daraxtlar yomg'ir tufayli namlanadi.

Betakalluf muloqot uslubi. Bu uslub juda yaqin munosabatdagi insonlar orasida ya'ni do'stlar, talabalar, xizmatdagi askarlar, va nihoyat o'rta darajali ma'lumotga ega bo'lgan insonlar orasida keng qo'llanilib, hozirda bu uslubni asosan koreys millatining yoshlar va qariyalar qatlami keng qo'llab kelmoqda. Shu bilan birga bu uslub orqali yana qariyalarning kichik yoshlarga nisbatan muloqotini ham bersak bo'ladi.

Masalan:

³²고려대. 재미있는한국어 5. -서울, 교보문고, 2010. - 67 쪽.

³³박영순. 국어문법교육론.-서울, 박이정, 2005. - 270 쪽.

- 주씨자네는혹시얼굴이라도본적이있는가?³⁴
- Janob Juni hech ko'rganmisan?
- 아니, 없을세.
- Yo'q, ko'rmaganman.

Haqoratomuz muloqot uslubi. Bu muloqot uslubi o'z nomidan ham ko'rinib turganidek tinglovchiga nisbatan qo'pol va haqoratomuz, jahl bilan qo'llaniladigan muloqot uslubi hisoblanadi. Bu uslub o'zaro begona ikki shaxs o'rtasida tafovutlar, tushunmovchiliklar yuzaga kelgan paytlardagina qo'llanilsa,

Masalan:

- 빨리가, 이자식아! 경찰서로가잔말야!³⁵
- Yur tez, yaramas! Xavfsizlik idorasiga boramiz dedim!
- 왜이러세요..... . 내가무슨잘못이 있다고..... .
- Nega bunday qilyapsiz... . Meni hatoyim nimada

o'zaro yaxshi tanish odamlar orasida esa hazilomuz va erkalash ohanglarida qo'llaniladi.

Masalan:

- 무슨말이야그게, 이자식아!
- Buni nima deganing, yaramascha! (kulib)
- 아니야, 아무것도...
- Yo'q, hech narsa...

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, koreys tili o'zbek tilidan farqli ravishda bir necha muloqot uslublariga ega bo'lib, koreys tilini o'rganish jarayonida shu uslublarni ham chuqur o'zlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Muloqot uslublarini

³⁴양귀자. «원미동사람들»연작소설집.-서울, 살림출판사, 2004. - 135 쪽.

³⁵양귀자. «원미동사람들»연작소설집.-서울, 살림출판사, 2004. - 102 쪽.

yaxshilab o'rganib, ularni amalda to'g'ri qo'llay olish bizni chet tilini qay darajada chuqur egallaganimizni ko'rsatib beraoladi. Shuning uchun ham til bilan bir qatorda ushbu muloqot uslublari haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

2- Bob. So'zlashuv uslubi ilmiy-madaniy axborot tashuvchi manba sifatida (Yang Kvidjaning "Vonmidongdagi odamlar" novellalar to'plami asosida)

2.1. So'zlashuv uslubining leksik-frazeologik xususiyatlari.

Ma'lumki, koreys tilini chet tili sifatida o'rganish bizdan leksik boylikni talab etadi. Biz ilmiy, ommabop, badiiy uslublaridagi matnlarni o'rganar ekanmiz, biz nafaqat leksik boyligimizni oshiramiz shu bilan bir qatorda koreys tili matnlarining grammatik jihatdan qurilishlarini, uslubiy qurilishlarini, badiiy vositalarni berilishlari haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Koreys matnlarida keltiriladigan o'ziga xos madaniyatiga oid so'zlar orqali esa uning madaniyatidan ham xabardor bo'la olamiz. Shuning uchun koreys tilidagi matnlar bilan tanishish muhimligini baholash qiyin bo'lgan ijtimoiy vazifa bo'lib ham keladi.

Koreys tilini o'rganish bilan bir qatorda uning uslubiyatini ham chuqur o'rganish zarur. Shu bilan bir qatorda zamonaviy koreys tilidagi uslubiyatning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ma'lumotlarga ega bo'lish orqali so'zlarni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llash va uslubiy xatolarga yo'l qo'yishning oldini olish mumkin.

Shunday qilib, koreys tili so'zlashuv uslubi keng qo'llaniladigan so'zlar va ifodalardan iboratdir. N.M.Shanskiy ta'kidlaganidek, "So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biri nutqdagi so'zlarning ham badiiy uslubda ham

kitobiy uslubda kela oladigan soʻzlarning ham qoʻllana olinilishi hisoblanadi»³⁶. Bunday soʻzlar badiiy soʻzlashuv uslubiga oid soʻzlar deb atalib, odamlar oʻzaro muloqotlari paytida juda koʻplab qoʻllaydilar. Koreys tilida ham huddi shunday soʻzlarni uchratishimiz mumkin.

Masalan

- 이럴때는 맥주가 최고야. 갈증이 싹가신다구³⁷.
- Bunday paytda pivo eng yaxshisi. Chanqoq bir zumda yoʻqoladi.

Bu yerdagi “chanqoq” maʼnosidagi soʻz koreys tilida ham badiiy adabiyotida ham ogʻzaki nutqida uchraydigan soʻz hisoblanadi.

Ogʻzaki nutq uchun xarakterli boʻlgan oddiy muomaladagi soʻzlar oʻzining soddaligi, hammaga tushunarli boʻlishi bilan yozma nutqdagi soʻzlardan ajralib turadi. Ogʻzaki nutqda uslubiy boʻyoqdor soʻzlar koʻp ishlatiladi, unlarda soddalik, taʼsirchanlik, baʼzan esa erkinlik sezilib turadi. Ogʻzaki nutq leksikasiga Dialektal soʻzlar :

- 해뜨는 날은 돈 벌어서 좋고, 비오는 날은 돈 받아서 좋고, 조오타!³⁸
- Quyosh chiqqan kuni pul ishlaganim uchun yaxshi boʻlsa, yomgʻir yoqqan kuni pul olganim uchun yaxshidir. Yaaxshiii !

Bu misoldagi tagiga chizilgan soʻz dialekt tilida berilgan boʻlib, aslida bu soʻzning adabiy shakli «좋다» hisoblanadi.

Erkalovsoʻzlari:

- 영등포야, 반은 온 것 같은데... . 춥지?
- 네, 조금...³⁹.

³⁶ Шанский Н.М. Стилистика русского языка. –Л., Просвещение, 1989. - 92с.

³⁷ 양귀자. «원미동 사람들» 연작소설집.–서울, 살림출판사, 2004. - 187 쪽.

³⁸ 양귀자. «원미동 사람들» 연작소설집.–서울, 살림출판사, 2004. - 167 쪽.

³⁹ 양귀자. «원미동 사람들» 연작소설집.–서울, 살림출판사, 2004. - 22 쪽.

- Yong Dingpxoginam, yarim yo'lni bosib o'tgandaymiz.... Sovuq qotding – a?

- Ha, ozgina... .

Haqorat so'zlar (vulgarizmlar) :

- 자식놈들 윗바라지에 땅 다 날려보낸 걸 몰라 !⁴⁰

- Yaramas bolalarga g'amxo'rlik qilaman deb butun boshli yerni boshini yeganidan habarin yo'qmi !

Jargonlar:

- 경옥이 처제. 요새는 왜 뜸해 ? 선옥이 언니 서울서 오거든 직방으로 내게 알리는 것 잊지 마. 그러면 내가 이것 주지 !⁴¹

- Kyongok singlim shu kunlarda ko'rinmay qolding ? Sonok opa Seuldan kelishi bilanoq menga xabar berishni unutmang senga mana bu narsani berardim !

Yuqoridagi keltirilgan so'zlar og'zaki nutq leksikasida eng ko'p ishlatiladigan so'zlar hisoblanadi.

Bundan tashqari so'zlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajratilib ko'rsatiladi.

Birinchi qatlamga kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan ijtimoiy hayot va uy – ro'zg'or yumushlari bilan bog'liq so'zlar kiritiladi. Bundan tashqari bu uslubda “siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchining kasb-hunarga mansub xilma-xil narsa – hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko'plab ishlatiladi”⁴².

Masalan

- 그럼 정신병자네 ! 미쳤던 거라구요.

⁴⁰양귀자. «원미동 사람들» 연작 소설집. –서울, 살림출판사, 2004. - 85 쪽.

⁴¹양귀자. «원미동 사람들» 연작 소설집. –서울, 살림출판사, 2004. - 105 쪽.

⁴²Shomaqsudov A. O'zbek tilistilistikasi. –Toshkent, O'qituvchi, 1983. –15b.

- 아니미친것이아니지. 자네는아직젊어서모르겠지만그런사람도혹가다있는법이야.
내가사진쟁이노릇만꼬박십삼년인데,
보자기뒤집어쓰고렌즈속으로손님얼굴을이리저리뜯어보다보니까돌팔이관상쯤은볼
수있게되었거든. 그런데말야, 별별사람이다많드라이거지⁴³.

- Unda ruhiy kasal ekanda ! aqli hushi joyida emas ekanda.
- Yo'q unday emas. Sen hali yosh bo'lganin uchun bilmaysan bunday odamlar ni hayot shunday qilib qo'ygan. Men 30 yil davomida sur'atlashlik qilib sur'atga olayotganda mehmonlarning barchasini yuziga termilib, taqdirini etib bera oladigan bo'lib qolganman. Lekin gap har xil odamlarning ko'pligida bilsang.

Ikkinchi qatlam - og'zaki nutqdagi ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlardir. Ular neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi. Badiiy so'zlashuv uslubi bilan solishtirganda, bu so'zlar so'zlashuv nutqidagi me'yorlarni buzmaydi. Lekin ular orasida ma'no jihatdan sodda bo'lsada, ular o'zlariga xos ravishda yorqin uslubiy xususiyatiga ega hisoblanadi. Masalan oqlob bo'lmaydigan, hazilomuz, ijobiy yoki salbiy ekspressiv – hissiy baho bera olish kabi yorqin uslubiy xususiyatlarni namoyon etishi mumkin.

Masalan

- 박가성님요, 그런말씀마시소. 미친척한다고언놈이밥먹여줄끼요?
그것도배부른인간이신선홍내내는기고,
남의입구녕에들어가는술갈이라도뺏어야묵어야할시상에그게무슨넛빠진짓이고⁴⁴.
- Janob Pak bunday so'zlarni gapirmang. O'zini es – hushi yo'qday ko'rsatish uchun oldiga kelganga ovqat beradimi? Yana qorni to'q odam avliyolikka

⁴³양귀자. «원미동사람들»연작소설집.-서울,살림출판사, 2004. - 118 쪽.

⁴⁴양귀자. «원미동사람들»연작소설집.-서울, 살림출판사, 2004. - 118 쪽.

da'vo qilib, birovning og'ziga kirayotgan qoshiqni ham tortib olinayotganday bunday zamonda bu qanday mehr.

Bunday so'zlarning orasida butunlay salbiy bahoni ko'rsatadigan so'zlar ham anchaginadir.

Masalan

- 약올리는것도아니고저게뭐예요?

면사포쓰고결혼식을올리지못한사람들이보면신경질날거야.

가만히있어도속이아픈데왜자꾸깜박거리는지몰라...⁴⁵.

- Birovni g'ashini keltirish uchun ham emas, asli nima bu? Kelinlik libosini kiyib to'y qila olmagan odamlar ko'rsa asabiylashadi. Jim tursada, qalbi og'riydi. Nega bunchalar boqishlarini chunmadingmi.

So'zlashuv uslubi sinonim qatorlarga boydir. Bunday vositalarni so'zlashuv uslubida qo'llash uni o'ziga xos mahsus ma'nosini keltirib chiqaradi. Nutqda so'zlovchi o'z fikrini bildirish jarayonida bir so'zni bir necha bora qo'llay olmaydi. Shunday vaziyatlarda sinonimik qator bevosita yordamga keladi. Bu orqali nutqda takrorlanishlar, birxilliklarga chek qo'yiladi.

Masalan

- 나는저애밥먹이는일때문에세상에태어났다는생각이들어.
- 이제성구가더자라서제손으로얼마든지끼니를해결하게되면네할일이없어져서큰일이 겠구나⁴⁶.
- Men bu bolani yedirib ichirish uchun tug'ilganmanmi degan o'y keladi hayolimga.

⁴⁵양귀자. «원미동사람들»연작소설집.-서울, 살림출판사, 2004. - 200 쪽.

⁴⁶양귀자. «원미동사람들»연작소설집.-서울, 살림출판사, 2004. - 182 쪽.

- Endi Songu ham katta bo'lib, qo'limdan ishimni olib ancha o'zini eplasa menga ish qolmasa nima bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda sinonimik qatorni keltirish orqali so'zlanayotgan nutqning ma'nosini yanada kuchaytirish mumkin bo'ladi.

Masalan

- 그사람바보예요. 정신박약이라니뭐라나.

등에써붙이고다니는종이쪽지도누가써줬대요⁴⁷.

- U odam axmoq. Es – hushi qochgan deydimi. Orqasiga yorishtirib yuradigan qog'oz parchani ham kimdir yozib bergan deyishadi.

So'zlashuv uslubi belgilangan nutqiy ifodalarga egaligi ekanligi bilan ajralib turadi. Masalan, koreys tilida salomlashishi jarayoni ayni shu ifodalar bilan namoyon bo'ladi:

- 안녕하세요? - Assalomu alaykum!
- 만나서반갑습니다 - Ko'rib turganimdan xursandman.

Xayrlashayotganda:

- 안녕히가세요 – Yaxshi boring
- 안녕히계세요 - Yaxshi qoling
- 안부를전해주세요 - Salom ayting

Minnatdorchilik bildirishda:

- 고마워요 – Rahmat
- 감사드립니다 – Minnatdorchiligimni qabul qiling

Hayron bo'lganda:

- 정말그렇지? – Rostan shunaqami?

⁴⁷양귀자. «원미동사람들»연작소설집. –서울, 살림출판사, 2004. - 222 쪽.

- 그런일은있을수없다!– Bunday bo’lishi mumkin emas!
- 설마, 어째서?- Qanday qilib bunday?

Hamdardlik bildirganda:

- 얼마나애석한일이지! – Qanchalar achinarli hol!
- 불운하다! - Omadsizlikni qara!

Iltimos qilganda esa:

- 저는부탁이있어요 – Meni bir iltimosim bor edi kabi ishlatiladi.

Umumiy olib qaraganda, so’zlashuv uslubida qo’llaniladigan so’zlarni ikkiga turga bo’lsa bo’ladi.

- Rasmiy so’zlashuv uslubiga oid so’zlar;
- Norasmiy so’zlashuv uslubiga oid so’zlar;

Rasmiy so’zlashuv uslubiga oid so’zlar tadbirlar va rasmiy doiralar orasida rasmiy suhbatlarda keng qo’llaniladi.

Masalan

- 주민등록증을새로발급받을까해서요.

- 아, 주민등록증을잃어버리셨군요.

그거한번잃어버리면동사무소에서너번은걸음해야되고여간귀찮지않아요⁴⁸.

- Fuqarolik guvoohnomasini qaytadan qilidirmoqchi edim.

- a, fuqarolik guvoohnomasini yo’qotib qo’yibsizda. Uni bir bora yo’qotib qo’ysangiz uch – to’rt marotaba mahsus idoraga borib murojaat etishingiz kerak.

Norasmiy so’zlashuv uslubiga oid so’zlar esa o’zaro yaqin aloqadagi insonlar, do’stlar uchun mo’ljallangan bo’lib, so’zlovchining tinglovchiga nisbatan iliq va do’stona munosabatini namoyon qilishda yordam beradi.

Masalan

⁴⁸양귀자. «원미동사람들»연작소설집.–서울, 살림출판사, 2004. - 220 쪽.

- 아까말예요. 지하도앞에서거지를봤어요.
- 어떤거지? 여태거지생각만하고있었군그래.
- 못봤어요?
- 모르겠는데...⁴⁹.
- Etganча hali yer osti yo'lida bir gadoyni ko'rgandim.
- Qanaqa gadoy? Shu kunlarda gadoylar haqida o'ylab yuribsanmi deyman.
- Ko'rmadingizmi?
- Bilmadim...

Bunday so'zlarning ishlatiladigan doirasidan tashqarida qo'llash orqali so'zlovchilarning orasida muloqotga kirishishni yanada osonlashtirib, ular orasidagi bir-biriga ishonchni bildirib ham keladi.

Masalan

- 걱정마세요. 난좁체집을안비우거든요. 열쇠는필요없을거예요⁵⁰.
- Havotir olmang. Men uyni hech yolg'iz qoldirmayman. Menga kelitning keragi yo'q.

Og'zaki nutqda keng qo'llaniladigan leksikalardan tashqari yana frazeologik birliklar ham mavjud bo'lib, bu birliklar, ayniqsa, koreys tili og'zaki nutqida keng qamrovda foydalanilib kelinadi. Frazeologizmlar nutqning ta'sirchan vositalaridan bo'lib, so'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi frazeologik ibora deyiladi. Frazeologizmlar yaxlitligicha yoki muayyan so'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi asosida yuzaga keladi.

⁴⁹양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004.- 221 쪽.

⁵⁰양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 260 쪽.

Masalan, *눈코뜰새없다* iborasi tarkibidagi soʻzlar bir butun holda koʻchma maʼnoda qoʻllanib, *juda bandtushunchasini* ifodalagan. Biroq *손을벌리다* birikmasida esa *벌리다* soʻzining koʻchma maʼnoda ishlatilishi iborani vujudga keltirgan.

Shu bois ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turgʻun birikmalari hisoblanadi. Frazеologik iboralarning soʻzlar singari tilning lugʻaviy birliklari qatoridan oʻrin egallaydi.

Koreys tili frazeologik birliklarga juda boy tillardan biri hisoblanadi. Bu frazeologik birliklardan esa asosan ogʻzaki nutqda foydalanadilar.

Masalan

- 좋수다, 형씨. 한잔하십시다⁵¹.
- 그래...
- Yaxshi qani aka, bir ichaylik.
- Mayli ...

Koreys tilidagi har bir frazeologik birlik oʻzining milliy oʻziga xos maʼnosiga ega boʻladi. Masalan milliyligini koʻrsata bera oladigan buyum yoki narsaning berilishi bilan oʻziga xos maʼno qoʻshib keladi.

Masalan

- 그사람을바라죽도밥도아닌데왜그렇게거만스레...
- 그러게말이야...
- Anavi odam oʻzi hich kim emasu nega oʻzini baland tutadi
- Shuni et...

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak koreys tilining soʻzlashuv uslubi oʻziga xos leksikalari va frazeologik birliklari bilan ajralib turadi. Bu soʻzlar va frazeologik

⁵¹양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 166 쪽.

birliklar nutqni yanada boyitadi va unga yorqinlik va bo'yoqlikni qo'shadi. Koreys tilining og'zaki nutqida ayniqsa uning o'z madaniyatiga oid leksikalar va frazeologizmlar ko'p uchraydi.

2.2 . So'zlashuv nutqi uslubining sintaktik xususiyatlari.

So'zlashuv nutqi uslubi o'ziga xos sintaktik qurilishga ega. So'zlashuv nutqida sintaktik tomondan quyidagilarni ko'rish mumkin:

- Mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlar birikishidan hosil bo'lgan vokativ formalarni;
- so'z birikmalarni hosil qiluvchi so'zlarning uzilishini;
- gap tarkibidan so'zlarning tushib qolishini;
- takror, ilova qurilishlarni;
- dislokatsiya(gap tarkibidagi so'zlarning mantiqiy urg'u ta'sirida mustaqil gap darajasiga ajralib chiqishi) hodisasini ko'plab uchratamiz.

So'zlashuv nutqi uslubida har bir yozma nutqdagi kabi gapning chegarasini aniqlash qiyindir. Chunki u fikrlash jarayonini aks ettiradi. Bunday nutq tarkibidagi gaplar o'zining quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. So'zlashuv nutqi uslubi tarkibidagi gaplar – o'zining ritmi va ohangdorligi bilan ajraladi.

Masalan

- 칠만원요? 그럼옥상은...
- 옥상에들어간재료비도여기에다들어있습니다. 그거야뭐몇푼되나요.
- 그럼우리가너무미안해서...⁵².
- 70 mingmi? Unda tom....

⁵²양귀자. «원미동사람들»연작소설집.-서울, 살림출판사,2004. - 164 쪽.

- Tomga ketadigan homashyolarning hisobi shuni ichiga kiritilgan. Bo'sayam qanchayam bo'lardi.
- Unda biz cheksiz afsus bilan...

2. Asosiy gap tarkibidagi biror bo'lakni izohlash maqsadida gap ichiga boshqa gap, so'z birikmasi yoki so'zlar kiritiladi.

Masalan

- 뭘봐요?
- 아니, 그냥...
- 할퀴엇을까봐그래요?
- 난함부로싸우지않아요.

하지만 일부 종사를 자랑으로 내세우는 여자들하고 싸워선져본적이없다구요⁵³.

- Nimaga qarayapsiz?
- Shunchaki o'zim...
- Yumdalashadi seb o'ylab shunday qilyapsizmi?
- Men o'zimdan o'zim urushadiganlardan emasman. Lekin shu kasb egalari bo'lgan ayollar bilan kurashganimda ham yutqizgan paytim bo'lmagan.

3. Ko'chirma gaplar to'la shakllanmagan muallif gapi bilan birga keladi.

Masalan

- 작지나않은지모르겠어요. 그만한것같아서샀는데 ...
- 작기야하지만 ... , 됐어요. 어쩌나, 그래도이런것은받는게아닌데⁵⁴.
- Kichkinami yo'qmi bilmadimu. Shunga loyiq bo'lgani uchun sotib olgandim...

⁵³양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 205 쪽.

⁵⁴양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 40 쪽.

- Sal kichkina bo'sayam ... a mayli bo'ldi. Baribir bunday narsani olmasdi.

4. Gapning birinchi qismida aytilgan fikrni va shu fikrni ifodalovchi so'zni ikkinchi qismda takrorlash hollari mavjuddir. Bunda so'zlovchi o'z nutqida muhim hisoblangan fikrni ifodalovchi gapni, uning biror qismini yoki so'zni takrorlaydi.

Takrorning umumiy funksiyasi shundan iboratki, u hissiylikni oshiradi, fikrni jonlantiradi, kishining ichki kechinmalarini ko'rsatishga yordam beradi.

Masalan

- 용민이지금서울가는길이요. 내가져나르리다.
- 서울? 뭇하러?⁵⁵
- Yongmin hozir Seulga ketish harakatida. Men olib borib qo'yaman.
- Seulga? Nima qilishga?

Aytilgan fikrlarni mustahkamlash maqsadida xulosa harakteriga ega bo'lgan gaplar ko'p ishlatiladi. Xulosa-gaplar ba'zan bir yoki bir necha so'zlardan, frazeologik birikmalardan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan

- 참고살다보면나중에는 ...
- 모두다소용없는일이야!⁵⁶
- Sabr qilib chidasak keyinchalik ...
- Bularni hammasi befoyda!

⁵⁵양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 81 쪽.

⁵⁶양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 168 쪽.

5. So'zlashuv nutqi uslubida qo'llaniladigan gaplarning tuzilish jihatdan turlari suhbat mavzusiga, maqsadiga, nutq amalga oshiruvchi sharoitga, suhbatdoshlar kayfiyati va nutqi harakteriga bog'liqdir. Lekin qo'shma gaplarga nisbatan soddaga gaplar ko'proq qo'llaniladi. Ayniqsa bir sostavli soddaga gaplar, to'liqsiz gap, so'roq gaplar ko'proq ishlatiladi.

Masalan

- 고향엘요?
- 예. 고향으로갑니다. 내고향으로...⁵⁷.
- Ona yurtingizgami?
- Ha. Ona yurtimga ketayapman. Meni ona yurtimga...

Gaplar qisqa va ixcham bayon etilishi bilan harakterlanadi. Mantiqiy-sintaktik munosabat bir gap hajmidan chiqib, turli gaplar o'rtasidagi aloqaga aylanib ketgan. So'zlashuv nutqi uslubidagi gaplar kesik qurilishlar tarzida qisqa, yig'iq holda, to'liq aytilmagan holatda bo'ladi. Bir kishi tomonidan aytilgan fikrning boshqasi tomonidan bo'linishi kabi hollar ko'plab uchraydi.

Masalan

- 아니왜요? 왜우리가괴로워요?
- 글씨말여⁵⁸.
- Yo'q nega? Nega biz azob chekamiz?
- Shuni aytaman.

Demak, tilning sintaktik vositalari nutqda, ayniqsa, so'zlashuv nutqi uslubida boy stilistik imkoniyat hisoblanadi.

So'zlashuv nutqi uslubida so'zlar tartibining o'zi ham katta bir sintaktik o'ziga xos xususiyat bo'lib kela oladi. Gapdagi bo'laklarning o'rmini o'zgartirish ularning

⁵⁷양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 170 쪽.

⁵⁸양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 253 쪽.

grammatik holatiga ta'sir qilmasada, biroq tartib o'zgarishi gap mazmuniga, o'ttenkasiga, yo'nalishiga ta'sir qiladi.

So'zlashuv nutqi uslubining dialogik holati, vaziyat va hissiyotlilik ta'sirida gapda bo'ladigan buzilish so'zlovchilar tomonidan beriladigan so'roqqa ham bog'liqdir.

Suhbatdoshning mavqei, fikrlash birligiga qarab so'zlovchi turli hil savollar berib, u orqali turli hil fikrlarni aniqlaydi. Shunga ko'ra, so'roqlar quyidagi fikr-mulohazalarni aniqlash uchun xizmat qiladi:

1. So'zlovchining maqsad, niyati haqida xabarni aniqlaydi. Shu jarayonda suxbatdoshlar bir-birining idrokini fikrini, orzu-istagini, rejalarini, taklifini, talabini, maslahatini bilib oladi.

Masalan

- 누구세요?
- 저, 지하에이사온 ...
- 네...웬일이세요?
- 화장실에...⁵⁹.
- Kim bu?
- Haligi, men pastgi qavatga ko'chib kelgan ...
- Ha... Nima ishingiz bor edi?
- Hojathonaga...

2. So'zlovchining axboroti, nutq so'zlayotgan vaqtidagi holati aniqlanadi. Bunda suhbatdoshlar umumiy xabarni, hozirgi paytdagi vaziyatni aniqlash bilan kimningdir so'zini yetkazishga, o'zi, suxbatdoshi yoki uchinchi shaxs haqida xabar berishga harakat qiladi.

Masalan

⁵⁹양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사,2004. - 272 쪽.

Masalan

- 연탄을어디서사면좋을까? 김반장은좋을까?
- 아네요.연탄은김포가더싸요.난어제백장들었는데오백원이나깎아주고플라
스틱바구니까지없어주던걸요.
- 어찌려고저러는지.

이백원짜리초콜릿을김반장은백오십원에팔드라니깐요⁶².
- Ko'mirni qayerdan sotib olsam bo'larkin? Kim Pan Jangdanmi?
- Yo'q. Ko'mir Kimpkada arzonroq. Men kecha narsa xarid qilgani
kiringandim 500 voncha tushirib berib, plastiksavatga ham solib berdi.
- Nega unday – a. 100 vonlik shokoladni Kim Pan Jangdan 150 vonga
olasan.

5. Oddiy munosabatni ifodalaydi. Suhbatdoshlar roziligi, tasdig'i, so'rog'i va boshqa shu kabilar namoyon bo'ladi.

Masalan

- 김반장은나쁜사람이야. 그렇지요?
- 그렇지요? 맞죠?⁶³
- Kim Pan Jang yomon odam. Shundaymi?
- Shunday? To'g'ri?

Ana shu yuqorida ko'zdan kechirilgan omillar asosida so'zlashuv nutqi uslubiga xos so'zlar tartibini o'rganish dolzarb masalalardan biridir. So'zlashuv nutqi uslubida suhbatdoshlarning erkin fikr almashishi amalga oshiriladi. Bu erkin holat inversiya uchun imkon tug'diradi. Inversiya to'g'ri tartibning o'zgarishi bilan yuzaga keladi.

⁶²양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 241 쪽.

⁶³양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 109 쪽.

Inversiya mantiqiy urg'u bilan mustahkam bog'liqdir. Mantiqiy urg'u bu gapdagi so'zlardan yo so'z birikmalaridan birning boshqalariga nisbatan alohida ajratib aytilishidir.

O'zaro nutqiy aloqada ohang muhim rol o'ynaydi. So'zlashuv nutqi uslubida ohang har xil hissiy-ekspressivlikni berish vositasi bo'lib xizmat qilishi bilan birga, ifoda maqsadiga ko'ra gaplarni farqlash, grammatik ma'nolarni chegaralash uchun ishlatiladi.

Ma'lumki, so'zlashuv nutqi uslubida til taraqqiyotining umumiy tendensiyasi aks etadi. Ko'pchilik gaplarda, ayniqsa so'roq, inkor gaplarda so'zlarning to'g'ri tartibini saqlashga intilish seziladi. Bu holni biz so'roq yuklamasi vositasida tuzilgan so'roq gaplarda ko'ramiz. So'roq gaplar so'zlashuv nutqi uslubining dialogic formasi uchun xarakterlidir. Shunday ekan, dialogdagi so'roq gaplar mantiqiy tuzilishi va undagi so'z tarkibi nuqtai nazaridan baland yoki tinch aytiladi. Bunday holat sof so'roq gaplar ishtirok etgan dialoglarda bo'ladi.

Masalan

- 안하던소리를하구그래요? 왜요?
- 내가이런장사를하면나하고결혼해줄거예요?
- 안하던소리는누가하는데 ... , 화난거야?⁶⁴
- Qilib ko'rmaganman deb aytadi? Nega? Men bu savdo dotiq bilan shug'ullansam men bilan turmush quradimi?
- Qilib ko'rmaganman deb kim aytdi... , jahling chiqdimi?

So'roq gaplar turli ohang hususiyatiga egadir. So'roq gapda so'roqni ifodalovchi leksik-grammatik vositalar bo'lmaganida ohang eng asosiy rolni o'ynaydi.

⁶⁴양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 212 쪽.

So'zlashuv uslubidagi so'roq gaplar ba'zan hissiyotlilikni tashiydi. Bunday so'roq gaplarda suhbatdoshlar uchun muhim bo'lgan fikr elementi ajratib ko'rsatiladi va gap ritorik so'roq xarakteriga ega bo'ladi. Ko'pincha so'zlovchining o'zi javob qaytaradi.

Masalan

- 같이먹고살아야지. 안그래? 그렇게살면되겠지, 뭐.⁶⁵
- Birga yashab o'tishimiz kerak. Shunaqamasmi? Shunaqa qilib yashasak bo'ldida.

So'zlashuv uslubida buyruq gaplarning mazmun turlari ohang orqali farqlanadi.

Tez temp bilan aytiluvchi buyruq gaplar do'q, qat'iy buyruq, man etish kabi ma'nolarni bildiradi.

Masalan

- 시끄러, 임마. 여기아니면밥줄끝나는줄알아? 책임진다니까그러네.⁶⁶
- Jim bo'l. Bu yer bo'lmasa, ovqat berilmaydi deb o'ylaysanmi? Ular ham oldini olish yo'llarini qilishganligi uchun shunaqa qilishyapti.

O'rtacha temp bilan aytiluvchi buyruq gaplar iltimos, nasihat, maslahat, ruhsat, taklif kabilarni ifodalaydi.

Masalan

- 엄마, 엄마. 돌고래쇼보러가자! 빨랑가자!⁶⁷
- Oyi , oyi. Delfin tomoshasini ko'rgani boraylik! Tezroq boraylik!

⁶⁵양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 254 쪽.

⁶⁶양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 270 쪽.

⁶⁷양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. - 187 쪽.

So'zlashuv uslubidagi talaffuz etishning kuchini yozuvda undov belgisi bilan ifodalab bo'lmaydi, lekin ohangning xarakteri, so'zlar tartibi va muallifning izohlari bilan gapning balandroq talaffuz etilishi orqali ifodalanadi.

Keltirilgan misollarda so'zlovchining xabar berilayotgan faktlarga va real voqelikka ifodalangan. Dialoglardagi javob darak gaplarda ham, so'roq gaplarda ham, undov gaplarda ham fikrning harakati uni yangidan boshlang'ich holatga qaytarishdan iboratdir. Ana shu jarayonda kuchli ohang ta'sirida so'zlashuv nutqida inversiya vujudga keladi.

Inversiyada gap tarkibidagi so'z yoki birikmaning odatdagi o'rni almashadi, chunonchi, gapning kesimi ega o'rniga yoki ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'lak o'rniga o'tib qoladi.

So'zlashuv uslubida adabiy tildagiga nisbatan inversiya hodisasi kuchlidir. Bo'laklari inversiyaga uchragan gaplar to'g'ri tartibdagiga qaraganda ko'proq ajralib turadi va diqqatni o'ziga ko'proq jalb etadi.

So'zlashuv uslubining dialogik xarakteri gapda so'zlarning to'g'ri tartibini o'zgartirishga olib keladi va shu yo'l bilan suhbatdoshning harakat, holatga diqqati tortiladi. Shu jarayonda asosiy munosabatni qo'zg'ovchi bo'laklar gapnin bosh qismiga o'tkaziladi.

Umuman, so'zlashuv uslubidan so'zlovchi suhbatdosh uchun eng zarur deb bilgan ma'lumotni, muhim narsa – hodisani oldin, unga zarur bo'lmagan ma'lumotlarni, qo'shimcha izohlarni, daf'atan esga kelib qolgan narsa – hodisalarni keyin aytadi.

Turkolog N.A Baskakov ta'kidlaganidek, so'zlashuv jarayonida aktual bo'lmagan bo'laklar kesimdan keyinga, aktual bo'laklar kesimdan oldinga o'tkaziladi. Bu narsa so'zlashuv uslubi uchun xarakterli holdir. So'zlashuv uslubiga xos so'zlar tartibi haqida tilshunos V.I. Vakurov shunday yozadi: "so'zlashuv nutqida inversiya gapning ma'nosinigina emas, hissiyligini ham kuchaytiradi".

Inversiya turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili so'zlashuv uslubida sezilarli darajada qo'llanilmoqda. Bu narsa adabiy tilimizda turli xil janr uslublarning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Demak, so'zlashuv uslubida adabiy tildagi kabi gap bo'laklarining to'g'ri tartibini va inversiyasini uchratamiz. Gapni uyushtirishda so'z tartibi turli vazifani bajaradi. So'zlar tartibi grammatik rol o'ynaydi va gapning sintaktik tuzilishini belgilaysi. Gapda so'zlarning to'g'ri tartibini mantiqiy, Grammatik bo'lak va uslubiy talabga binoan buziladi. So'zlar tartibining o'zgarishi natijasida gapdagi so'zlarning grammatik munosabati o'zgarsa, bunda tartib grammatik vazifasini bajargan bo'ladi.

Agar so'zlar tartibining o'zgarishi gapga qo'shimcha ma'no yuklasa, bunda tartib uslubiy vazifani bajargan bo'ladi.

Gapdagi biror so'zga mantiqiy urg'u tushib, u so'z birinchi o'ringa o'tkazilsa, ma'no ahamiyati oshadi.

Masalan

- 늦었을거예요. 어서돌아가세요⁶⁸.
- Kech qolasiz. Tezroq qaytib keting.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, koreys tili so'zlashuv uslubidagi leksik-frazeologik va sintaktik o'ziga xos xususiyatlar uni yanada chuqurroq o'rganishga chorlaydi. So'zlashuv uslubida inversiya ko'p uchraydi. Bu hol so'zlashuv uslubida erkin tartib ustun ekanligini ko'rsatadi.

⁶⁸양귀자. «원미동사람들»연작소설집. -서울, 살림출판사, 2004. -224 쪽.

Xulosa

Mazkur bitiruv malakaviy ishning eng boshida berilgan vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz:

1. Bitiruv malakaviy ishimizning asosini tashkil qilgan Yang Kvidjaning "Vonmidongdagi odamlar" nomli novellalar to'plamini topdik va undagi novellalarni o'rganib chiqdik.
2. Yang Kvidjaning "Vonmidongdagi odamlar" nomli novellalar to'plamidagi qahramonlar nutqini ajratib olib ularni tarjima qildik va o'rganib chiqdik.

3. I bobda koreys tilidagi so'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqdik va 1.1. bo'limi bo'yicha koreys tili so'zlashuv uslubining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib oldik:

- So'zlashuv uslubida fikr ifodasi uchun juda zarur bo'lmagan hamma narsani aytmasdan "tushirib qoldirish" kuchli bo'ladi;
- ikkinchi suhbatdosh fikrida birinchi suhbatdosh fikrining ba'zi elementlari takrorlanadi, yo almashtiriladi yoki tushirib qoldiriladi;
- Imo va ishoralar va hissiy bo'yoqdorliklar ko'pincha nutq mazmuni bilan uyg'un holda ishlatilib nutqning ta'sir kuchini oshiradi;
- yakka predmet, voqea-hodisalar haqida fikr bayon etishda aniqlikka intiladi;
- Til sinonimlari va anotimlaridan, qo'pol va haqoratomuz so'zlarning faollashuvi kuzatiladi;

4. I bobning 1.2. bo'limidan esa quyidagi xulosalarni bilib oldik:

- Koreys tilida rasmiy – hurmat muloqot uslubi, rasmiy – behurmat muloqot uslubi, do'stona muloqot uslubi, oddiy muloqot uslubi, betakalluf muloqot uslubi, haqoratomuz muloqot uslubi kabi 6 turdagi muloqot uslubi mavjud;
- ushbu koreys tili muloqot uslublari orasida rasmiy – behurmat muloqot uslubi va do'stona muloqot uslublari eng keng qamrovda qo'llaniladigan muloqot uslublari hisoblanadi;
- rasmiy – hurmat muloqot uslubidan, asosan, rasmiy doirada va o'zaro begona aloqadagi shaxslar tomonidan ishlatiladi;
- oddiy muloqot uslubidan ko'pincha umum ommaga murojaatda ya'ni gazeta, jurnallarda foydalaniladi;
- betakalluf muloqot uslubini katta yoshdagilar kichik yoshlarga nisbatan qo'llaydilar;
- haqoratomuz muloqot uslubi esa nomidan ham kelib chiqqadigan bo'lsak, shaxslarning o'zaro bir-biridan norozi bo'lgan paytlarida ko'proq ishlatiladi;

5. II bobda esa so'zlashuv uslubini ilmiy – madaniy axborot tashuvchi manba sifatida o'rganib chiqib, 2.1 bo'lim bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz:

- koreys tili so'zlashuv uslubi keng qo'llaniladigan so'zlar va ifodalardan iboratdir;
- Og'zaki nutq uchun xarakterli bo'lgan oddiy muomaladagi so'zlar o'zining soddaligi, hammaga tushunarli bo'lishi bilan yozma nutqdagi so'zlardan ajralib turadi ;
- Og'zaki nutqda uslubiy bo'yoqdor so'zlar ko'p ishlatiladi, unlarda soddalik, ta'sirchanlik, ba'zan esa erkinlik sezilib turadi ;
- Bundan tashqari so'zlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan ijtimoiy hayot va uy – ro'zg'or yumushlari bilan bog'liq so'zlar va og'zaki nutqdagi ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlardir ;

6. II bobimizning 2.2. bo'limi so'zlashuv uslubining sintaktik xususiyatlariga oid bo'lib, bu bo'limdan quyidagi xulosalarni keltirib o'tishimiz mumkin :

- So'zlashuv nutqi uslubi tarkibidagi gaplar – o'zining ritmi va ohangdorligi bilan ajraladi ;
- gap tarkibidagi biror bo'lakni izohlash maqsadida gap ichiga boshqa gap, so'z birikmasi yoki so'zlar kiritiladi ;
- ko'pincha ko'chirma gaplar to'la shakllanmagan muallif gaplari bilan birga keladi ;
- Gapning birinchi qismida aytilgan fikrni ikkinchi qismda takrorlash hollari mavjud ;
- Xulosa – gaplar juda ko'p qo'llaniladi ;
- Qo'shma gaplarga nisbatan sodda gaplar ko'proq ishlatiladi ;

- Gaplar qisqa va ixcham bayon etiladi ;
- So'zlarning tartibi o'zgaradi ;

Mazkur bitiruv malakaviy ishning avvalida qo'yilgan maqsad va vazifalar Asosiy qismda o'z ifodasini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Foydalanilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari :
Karimov I.A. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. – Toshkent, O'zbekiston, 2012.

Karimov I.A. “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”.–Toshkent, O’zbekiston, 2011.

Foydalanilgan darsliklar :

1. Bozorboy va Dilbar O’rinboyevlar. Hozirgi o’zbek tilining so’zlashuv uslubi. –Toshkent, Fan, 1991.
2. К.Б. Куротченко.Корейскийязык (учебноепособие).-Москва, 2005.
3. МазурЮ.Н. Грамматикакорейскогоязыка.–М., ДомМуравей-Гайд, 2001.
4. MamatovningA.“Hozirgi o’zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari”.– T., O’qituvchi, 1991.
5. Sirotinina O.B. So’zlashuv uslubi//Ijtimoiy lingvistika masalalari.-L., 1989.
6. Yo’ldoshevningB. “Hozirgi o’zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari”. – T., O’qituvchi. 1994.
7. Sh o m a q s u d o v A. O’zbek tili stilistikasi. –Toshkent, O’qituvchi, 1983.
8. Шанский Н.М. Стилистика русского языка. – Л., Просвещение. 1989.
9. 국제교육진흥원. 한국어 (중급). –서울,국제교육진흥원, 2007.
10. 고려대. 재미있는한국어 5. –서울,교보문고, 2010.
11. 국제교육원. 한국어초급 2. –서울,경희대출판국, 2009.
12. 국어교육학사전. –서울,대교출판, 2004.
13. 박영순. 국어문법교육론. –서울,박이정, 2005.
14. 서정수. 국어문법.–서울,한양대학교, 1966.
15. 이익섭. 한국의언어.–서울, 신구문화사, 2004.
16. 최용기. 국어학연감. –서울,국립국어원, 2004.
17. 최현섭. 국어교육개론. –서울,외출판사, 2005.

18. 한길. 현대우리말의마침씨끝연구. –서울,역락, 2004.
 19. 한길. 현대우리말의형태론. –서울,역락, 2006.

Foydalanilgan o'quv qo'llanmalar:

20. Васильева А. Н. Курс лекций по стилистике русского языка. – М., 1986.
 21. Ким В. Н., Пан Л. А., Цай Л. Д. Лексикология (учебное пособие). – Ташкент, 2009.
 22. Хамроев М. А. О'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. – Toshkent, 2003.
 23. 김전택. 한국어의어휘론. –서울, 답출판사, 1992.

Foydalanilgan ilmiy maqolalar:

24. Ким Е. В. Характерные особенности лексики разговорного стиля в корейском языке // Межд. научн. конфер. «Содействие развитию корееведения в СНГ: Проблемы и решения». – Т., 2006.

Foydalanilgan lug'atlar:

25. A. Ismoilov. O'zbekcha – koreyscha lug'at. - Samarqand davlatchettillar institute, "Nurpoligraf" MCHJ bosmaxonasi, 2008.
 26. 김인호. 뉴에이스국어사전. –서울, 금성출판사, 2004.
 27. 박용수. 우리말갈래사전. –서울, 한길사, 1989.
 28. 새한러사전. – 타슈켄트, 도사출판대들사, 2001.
 29. 서울대음흥빈교수의한국어사전. –서울시, Education, 1999.
 30. 이상수. 한러사전. –서울, 러시아어문학사, 2007.

Foydalanilgan ensiklopediyalar:

31. Dong-A encyclopedia.–Seoul, Dong-A, 1994.

Foydalanilgan dissertatsiya ishlari:

32. Иванова С. В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц.-М., 2005.

33. Мошникова Н. Н. Лингво-когнитивный аспект исследования дискурса театральной рецензии : на материале современных англоязычных печатных СМИ. – М., 2006.

Foydalanilgan badiiy asarlar:

34. 양귀자. «원미동사람들»연작소설집. –서울, 살림출판사, 2004.

35. 이호철. 한국현대명작단편 2.–서울, 종로서적, 1993.

36. 조항범. «당신의 품격, 언어예절이 시작이다».–서울, 충북대학교국어생활연구소, 2007.

Foydalanilgan internet saytlari:

37. <http://www.samdu.uz/files/web/napr/filologiya/ynm/html/04.htm>

38. <http://blog.daum.net/nyscan/11280488>

39. <http://quanquan686.blog.me/60143126840>

40. <http://naver.com/search.naver?where=nexearch&query=>

41. <http://newslibrary.naver.com/viewer/index.nhn?articleId=>

42. <http://www.languages-study.com/korean-words.htm>

43. <http://www.yonsei.ac.kr/press.E-mail.ysup@yonsei.sc.kr>.

44. <http://ko.wiktionary.org/wiki/%EB%AC%B8%EC%B2%>

45. <http://onatili.uz/tag/sozlashuv-uslub/>

46. <http://www.ziyouz.com/ru/library/view/alllibs/fv/uzb/fs/look/ds>

47. forum.ziyouz.com/index.php?topic=1800.170;wap

